

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARDA MULOQOT JARAYONINI SHAKLLANTIRISH

Abdiraxmonova Mohidil Baxtiyor qizi
UrDPI Pedagogika fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar bilan muloqot jarayonini shakllantirish orqali bola dunyoqarashini kengaytirish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlari: ijodiy o'yinlar, ko'rgazmalilik, syujetli-rolli o'yinlar, maishiy o'yinlar, qurish, dramalashtirish.

Har bir kishining o'z "Meni" atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida shakllanadi, Shaxsning hayot yo'llari avval oilada, bog'cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya'ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri - bu muloqotga bo'lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz. Pedagogik muloqot - bu muloqot turlaridan biri bo'lib, pedagogik faoliyatda muhim o'rin tutadi.

Bolalar bilan muomala qilish pedagogning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun pedagog so'zlashishni, muloqot olib borishni doimo o'rganib borishi lozim. U bolalar bilan faoliyatni samarali olib borishni, so'zlashishni bilishi, suhbat, hikoya kilish kabi usullaridan foydalanishi, umuman butun ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'ya olishi lozim.

Pedagogik muloqot - pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab bo'lgan o'zaro tarbiya jarayoni. Bu muloqot jarayonida ishtirokchilarni hamkorlikda ishlashi, bir-birlariga yordam berishi, harakatlarni o'zaro muvofiqligiga erishish kabilar samarali natijalar beradi. Pedagogik muloqotning unumli o'tishi pedagogik-psixologik mahoratga bog'liqdir.

Pedagog bilan bolalar o'rtasidagi muloqot samarali bo'lishi uchun unda yetarli darajada qobiliyat bo'lishi kerak hamda o'z - o'ziga doimo quyidagi savollarni berishi va unga javob berishga harakat qilishi kerak:

- ilm – fandagi yangiliklarni anglash, yangi fan terminlarini tushunish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirish;
- malaka, ko'nikma va qobiliyatni shakllantirish;
- O'yin mashg'ulotlarda integratsiya, bog'liklikni amalga oshirish;
- o'quv mazmunini tushunarli tizim asosida qurish.

Kimni o'rgatish:

- bolalarni ba'zi psixik xususiyatlarini (eslab qolish, nutqi, fikrlash...) hamda ularni qay darajada o'qimishli, tarbiyali ekanliklarini aniqlash;
- bolalarning bir darajadan ikkinchisiga o'tishdagi qiyinchiliklarini oldindan aniqlash;

v) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalarning dalillar keltirishini, fikrlarini hisobga olish;

g) bolalarlardagi turli psixik o'zgarishlar va rivojlanishni hisobga olib, o'z pedagogik mehnatini tashkil etish;

d) iqtidorli bolalar bilan ham ishlash, yakka holdagi ishni tashkil etish.

Qanday o'rgatish:

a) ish jarayonida ishlatiladigan kuch va ketadigan vaqtni hisobga olgan holda o'qitish va tarbiyalashning turli usullari majmuini ishlatish.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari, bu talab, rag'batlantirish jamoatchilik fikri.

Rag'batlantirish va jazolash-bolalarni xulq-atvoriga kuzatish kiritishni, ya'ni foydali xatti-harakatlarni qo'shimcha rag'batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning noma'qul xatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi.

Jamoatchilik fikri – tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy-foydali faoliyatini g'oyat har tomonlama va muntazam rag'batlantirib borishni ta'minlaydi.

Talab-pedagogik ta'sir ko'rsatishning boshlang'ich usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilarda o'ziga nisbatan mas'uliyat va talabchanlikni rag'batlantirishda alohida vazifani bajaradi.

O'zaro fikr almashish bilan ta'sir ko'rsatish vositalari: ishontirish, ta'sir qilish, o'zaro fikr almashish bilan ta'sir ko'rsatish.

Ishontirish pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli sifatida o'yin masshg'ulotlarda ijodiy suhbatlar, munozaralar shaklida qo'llaniladi. Tarbiyaviy ishda guruhviy va yakka suhbatlar, munozaralar shaklida qo'llaniladi.

Ta'sir qildirish kishi psixikasiga nazoratsiz kirib, uning faoliyatida xatti-harakatlar, sabablar, intilishlar bilan amalga oshiriladi. Ta'sir qilish-shunday bir psixik ta'sir ko'rsatishki, kishi uni ongining etarli nazoratsiz idrok etadi.

a) Pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va umumlashtirish, usullarni qo'yish;

b) Bolalarga yakka individual holda munosabatda bo'lish, ularni ijodiy ishlarini tashkil etish.

1. Avtoritar uslub.

- Avtoritar o'zi yakka holda guruh faoliyatini yunalishini belgilaydi.

- O'zi ko'rsatma-buyruq beradi.
- Javobgarlikni o'z buyniga oladi.
- So'zsiz bo'ysunishni da'vo etadi.
- Qattiq intizomni talab etadi.
- Aytilgan narsani to'liq bajarilishini talab etadi.

Muloqotga kirishishning asosiy shakllari: buyruq, ko'rsatma berish, qo'llanma bilan ishlash, xayfsan e'lon qilish.

Muomalada qo'pol, dag'al, do'q-po'pisali, majbur etish, qo'rqitish, cho'chitish orqali kirishadi. Uslubning ijobiy tomoni favqulotda vaziyatlar ishlatilishi (yong'inda, suv toshqinida).

2. Demokratik uslub.

- Jamoa fikriga tayanib ish olib boradi.
- Jamoa fikrini, tashabbusini ma'qullaydi, rivojlantiradi, boshqalar fikriga hurmat bilan qaraydi.

- Boshqalar fikrini o'zini qilib oladi.

3. Liberal uslub.

- Tashabussiz jamoa ishiga aralashmaydi, hamma masalalarni yuzaki qarab chiqadi. O'zining fikri yo'q, javobgarlikdan o'zini chetlatadi. Ish natijasi bilan qiziqmaydi.
- O'quvchilarga etiborsizlik bilan, beg'am qaraydi.
- O'z ishiga sovuqqonlik bilan qaraydi.
- Qo'rquv orqali munosabat- dialog va monolog.

Ko'p bolali oilalarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola shaxsining rivojlanishiga aka-ukalari, opa - singillar ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Aka-ukalar va opa - singillar bolaga eng yaqin bo'lgan mikromuhit tarkibiga kirib, unda markaziy o'rinni egallaydi. Ba'zi tadqiqotchilar, hatto, shunday fikrdaki, oila azolarining soni ko'paygan sari bolalarga ota-onaning ta'siri susayib, aka-ukalar opa-singillar ta'siri kuchayib boradi. Katta akalari va opalari davrasida bola o'zini emotsional himoyalanganday his qiladi. Aka-opalar esa o'zlarini mehribonlik his-tuyg'ularini, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ular o'rtasida bola o'zining tashvishlari, qiziqishlari bilan o'rtoqlashishi mumkin. Akalar-u, opalar esa uning ehtiyojlari, jumladan, muloqotda bo'lish ehtiyojini qondirishlari mumkin. Demak bog'cha yoshdagi bolalarning boshqa bolalar bilan bo'lgan ancha murakkab va xilma-xil munosabat turlari shakllanadi va ana shu munosabatlar ma'lum miqdorda uning shaxs shakllanishini belgilab beradi. O'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishiga qiynalayotgan, muloqotda bo'lish ehtiyoji yetarlicha shakllanmagan bolalarning tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatlari faollashtirmaslik lozim. Yaxshisi, dastlab umumiy qiziqishlarga ega bo'lgan 1- 2 ta sherikni topish, keyinchalik asta-sekin muloqot doirasini kengaytirib borish maqsadga muvofiqdir. Bolalarda noto'g'ri shakllanib ulgurgan muloqot motivlarini qaytadan qurish avvalo, boshqalarning fikri bilan hisoblashishga o'rgatish ancha foydalidir.

Xulosa qilib aytganda kattalarning bog'cha yoshidagi bola shaxsi shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri bolaning boshqa faoliyatlari masalan, rasm chizish, turli narsalar yasashi, aplikatsiyalar tayyorlashi, o'quv vazifalarini bajarishi vaqtida ham amalga oshiriladi. Ushbu faoliyatlarni bajarishi davrida bolalarda kattalar va tengdoshlari tomonidan ijobiy bahoga sazovor bo'ladigan narsani yaratishga yo'nalganlik qaror topadi, ijtimoiy yo'nalganlik shakllanib boradi, bilish motivlari va boshqa shaxsiy xususiyatlari tarkib topib boradi.

Adabiyotlar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari. T-2008
2. Abu Rayxon Beruniy. Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. –T., 1992.
3. R.Mavlonova, O.To'raeva, K.Holiqberdiev. Pedagogika. –T.: O'qituvchi, 2001.
4. P.Yusupova. Maktabgacha pedagogika. –T.: O'qituvchi, 1993.